

## Bayramingiz muborak!

✘ Ayollarni, qizlarni bahorga qiyoslashadi, bahorni esa ularga. Go'zallik, nafosat, yangilanish, hayot davomiyligi bahor va ayol tushunchalarida uyg'unlashib ketadi. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami go'zal va betakror yurtimizga bahor nafasi kirib kelganidan darak beradi. Ayol azaldan mehr-shafqat timsoli bo'lib kelgan. Ayol deganda, ko'z o'ngimizda avvalo, ulug' va tabarruk ona siymosi gavdalanadi. Inson zoti borki, olamdagi barcha yaxshilik va ezguliklarni, hayot sir-u asrorlari va saboqlarini onaning mehru-sahovati tufayli o'rganadi. Ayol borki, olam munavvar, ayol borki hayot go'zal va maftunkor. Inson, ayol tushunchalarini bir-biridan ajralgan holda, tasavvur etib bo'lmaydi.

Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida, mo'tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir. Shu sababli ham 8-martni aynan Ayollarimiz kuni ya'ni, xalqaro xotin-qizlar kuni deb, keng nishonlaymiz. Ushbu bayram bugun nafaqat yurtimizda, balki dunyoning barcha burchaklarida juda keng nishonlanmoqda. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti erta tongdan institutimiz yoshlar ittifoqi Boshlang'ich tashkiloti tomonidan 8 mart Xalqaro ✘ xotin-qizlar bayrami munosabati bilan institutimizning barcha ayol va dilbar qizlarimizni bayram tabrigi sifatida kutib olishdi.

Shuningdek, institutning madaniyat saroyida 8 mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu bayramda taklif etilgan barcha ayollarimizni institutimizning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Q.Shavazov bayram tadbiriga sifatida ularni kutib oldilar va gullar va sovg'alar bilan mubarakbod etdilar. Shuning bilan bayram tadbiri bahor valsi bilan boshlanib ketdi. Unda institutimizning talaba qizlari o'z raqslari bilan ishtirok etishdi va institutimiz rektori O'. Umurzakov so'zga chiqib, barcha opa-singillarimizni 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan tabriklab, bayramni tadbiriochib berdilar.

✘ Shundang so'ng bayram tadbirini turli kuy qo'shiq va raqslarga ulanib, ketdi. Unda ishtirok etgan institutimiz talabalari o'zlarini dilrabo qo'shiqlari, turli raqslari va sahna ko'rinishlari bilan barcha yig'ilganlarni xushnud etishdi. Chindan ham ayollarimizning oilada tutgan o'rni beqiyos. Oqila go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar. Ulug' donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rif izlaganda, uni Ona siymosiga qiyos etganlarida katta ma'no bor. Dunyoda "muqaddas" degan so'zga eng munosib zot ham – Onadir. Ushbu bayram tadbirida tashrif buyurgan el ardodagi halqimizning sevimli sa'atkorlari, munis onajonlarimiz haqida go'zal qo'shiqlar ijro etib, barcha ayollarimizni raqsga taklif etishdi.

Bayram juda keng ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Darhaqiqat, Onani, ayollarni e'zozlash bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz. Yana bir bor barcha ayollarimizni bayramlari bilan tabriklaymiz.



**“Yer resurslarini boshqarish” fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini  
H.Eshova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**